



## KORXONALAR MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQ QARZINI QISQARTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH

**Payziyev Xamid**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*ORCID: 0009-0005-9258-7973*

*[murod5091@gmail.com](mailto:murod5091@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqolada O'zbekiston iqtisodiyoti modernizatsiyalashuvi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar, xususan, korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va ularning to'lov qobiliyatini oshirishda soliq qarzlarni optimallashtirish hamda qisqartirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqot doirasida korxonalarda soliq qarzlarning vujudga kelishining ichki va tashqi omillari, soliq majburiyatlarining o'z vaqtida bajarilmasligining korxonalar likvidligiga salbiy ta'siri hamda soliq ma'muriyatchiligini transformatsiya qilish orqali soliq qarzdorligini kamaytirish yo'llari atroflicha tahlil qilingan. Maqolada soliq qarzlarni majburiy undirish va uning huquqiy-iqtisodiy oqibatlarini, xususan, undiruvni sudgacha va sud tartibida amalga oshirish samaradorligi muhokama qilinadi. Milliy soliq tizimidagi so'nggi islohotlar va amaldagi Soliq kodeksi normalarining korxonalar barqarorligiga ta'siri konseptual jihatdan baholangan. Shuningdek, xalqaro ilg'or tajribalarni O'zbekiston iqtisodiy realligiga moslashtirish, soliq intizomini oshirishda rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish hamda inkasso va ijro hujjatlari bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** korxonalar moliyaviy barqarorligi, soliq qarzi, soliq ma'muriyatchiligi, to'lov qobiliyati, soliq intizomi, majburiy undirish, likvidlik, Soliq kodeksi, soliq yuklamasi, insofsiz soliq to'lovchi, risklarni boshqarish, korporativ moliya.

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ СОКРАЩЕНИЯ НАЛОГОВОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ

**Пайзиев Хамид**

*Денауский институт предпринимательства и педагогики*

**Аннотация.** В данной научной статье исследуются вопросы совершенствования механизмов оптимизации и сокращения налоговой задолженности в целях обеспечения финансовой устойчивости хозяйствующих субъектов, в частности предприятий, а также повышения их платежеспособности в условиях модернизации экономики Узбекистана. В рамках исследования всесторонне проанализированы внутренние и внешние факторы возникновения налоговой задолженности на предприятиях, негативное влияние несвоевременного исполнения налоговых обязательств на ликвидность предприятий, а также пути сокращения налоговой задолженности посредством трансформации налогового администрирования.

В статье рассматриваются вопросы принудительного взыскания налоговой задолженности и его правовые и экономические последствия, в частности эффективность осуществления взыскания в досудебном и судебном порядке. Концептуально оценено влияние последних реформ национальной налоговой системы и норм действующего Налогового кодекса на устойчивость предприятий. Кроме того, разработаны научно обоснованные предложения и практические рекомендации по адаптации передового международного опыта к экономическим реалиям Узбекистана, внедрению стимулирующих механизмов повышения налоговой дисциплины, а также устранению проблем, связанных с инкассовыми поручениями и исполнительными документами.

**Ключевые слова:** финансовая устойчивость предприятия, налоговая задолженность, налоговое администрирование, платежеспособность, налоговая дисциплина, принудительное взыскание, ликвидность, Налоговый кодекс, налоговая нагрузка, недобросовестный налогоплательщик, управление рисками, корпоративные финансы.

### IMPROVING TAX DEBT REDUCTION MECHANISMS IN ENSURING THE FINANCIAL STABILITY OF ENTERPRISES

*Payziyev Xamid*

*Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy*

**Abstract.** This scientific article investigates the issues of optimizing and improving the mechanisms for reducing tax debt in order to ensure the financial stability and enhance the solvency of economic entities, particularly enterprises, in the context of the modernization of Uzbekistan's economy. Within the framework of the study, the internal and external factors underlying the emergence of tax arrears in enterprises, the negative impact of untimely fulfillment of tax obligations on corporate liquidity, and the pathways for mitigating tax debt through the transformation of tax administration are comprehensively analyzed. The article discusses the compulsory enforcement of tax arrears and its legal-economic consequences, specifically focusing on the effectiveness of pre-trial and judicial debt collection procedures. The impact of recent reforms in the national tax system and the norms of the current Tax Code on enterprise sustainability is conceptually evaluated. Furthermore, scientifically grounded proposals and practical recommendations have been developed to adapt international best practices to the economic realities of Uzbekistan, introduce incentive mechanisms to enhance tax compliance, and eliminate problems associated with bank orders (inkasso) and enforcement documents.

**Keywords:** enterprise financial stability, tax debt, tax administration, solvency, tax compliance, compulsory enforcement, liquidity, Tax Code, tax burden, non-compliant taxpayer, risk management, corporate finance.

#### **Kirish.**

Bozor iqtisodiyoti munosabatlarning chuqurlashishi va global iqtisodiy transformatsiyalar davrida har qanday davlatning iqtisodiy negizini mikroiqtisodiy darajadagi subyektlar — korxonalarining barqaror faoliyati tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar negizida ham tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash, ularning moliyaviy mustaqilligini ta'minlash va investitsiyaviy jozibadorligini oshirish ustuvor vazifa qilib belgilangan. Biroq, zamonaviy raqobat muhitida va makroiqtisodiy beqarorlik sharoitida ko'plab korxonalar o'z faoliyatida

likvidlik yetishmovchiligi va to'lov qobiliyatining pasayishi kabi jiddiy moliyaviy muammolarga duch kelmoqda. Ushbu muammolarning eng yaqqol va keskin namoyon bo'ladigan shakllaridan biri bu korxonalarining davlat budjeti va budjetdan tashqari jamg'armalar oldidagi soliq qarzlarning shakllanishidir.

Soliq qarzidorligining vujudga kelishi va uning surunkali xarakterga ega bo'lishi nafaqat alohida olingan xo'jalik subyektining moliyaviy inqiroziga (bankrotligiga) olib keladi, balki zanjirsimon reaksiya tarzida uning kontragentlari, ta'minotchilari va kreditlar bergan bank tizimiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Eng asosiysi, korxonalar tomonidan soliq majburiyatlarining o'z vaqtida va to'liq bajarilmasligi davlat budjeti daromadlar qismining shakllanishiga to'sqinlik qilib, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarning moliyalashtirilishini kechiktiradi.

O'zbekiston sharoitida soliq tizimini raqamlashtirish, soliq ma'muriyatchiligini soddalashtirish borasida ulkan qadamlar qo'yilgan bo'lsa-da, amaliyotda korxonalarining soliq qarzlarni tartibga solish va ularni qisqartirishning samarali, moslashuvchan mexanizmlari hali ham to'liq shakllanib ulgurmagan. Ko'pincha qo'llaniladigan keskin ma'muriy choralar, masalan, bank hisobvaraqlariga zudlik bilan inkasso topshiriqnomalarini qo'yish yoki mol-mulkni xatlash, korxonaning operatsion faoliyatini butunlay to'xtatib qo'yib, uning soliq qarzini to'lash imkoniyatini yanada cheklaydi. Ushbu jihatlar korxonalar moliyaviy barqarorligini saqlagan holda soliq qarzlarni qisqartirishning yangi, transformatsion va rag'batlantiruvchi uslubiyotlarini ishlab chiqishni favqulodda dolzarb masalaga aylantiradi.

Ushbu tadqiqotning bosh maqsadi O'zbekistonning zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va ularni bankrotlik holatiga tushib qolishdan himoya qilish kontekstida soliq qarzlarni qisqartirish va optimallashtirish mexanizmlarini konseptual jihatdan takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar to'plamini ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu bosh maqsadga erishish uchun quyidagi aniq vazifalarni hal etish belgilangan:

- korxonalar darajasida soliq qarzlari shakllanishining tub iqtisodiy sabablari va ularning ichki-tashqi omillarini tizimli tahlil qilish;
- amaldagi milliy soliq qonunchiligi va ma'muriyatchiligining soliq qarzlarni yuzaga keltirish hamda ularni undirish jarayonidagi bo'shliqlari va nomuvofiqliklarini aniqlash;
- soliq qarzlarni undirishni kechiktirish, bo'lib-bo'lib to'lash va restrukturizatsiya qilish institutlarining samaradorligini baholash;
- soliq organlari va to'lovga qobiliyatsiz bo'lib qolgan korxonalar o'rtasidagi huquqiy-iqtisodiy munosabatlarni muvozanatlashtirish yo'llarini belgilash;
- rivojlangan davlatlarning soliq qarzini qisqartirish va soliq to'lovchilar bilan ishlash bo'yicha ilg'or korporativ va davlat tajribalarini o'rganib, ularni milliy iqtisodiyot amaliyotiga adaptatsiya qilish imkoniyatlarini dalillash.

### Adabiyotlar sharhi.

Korxonalar moliya tizimi, ularning barqarorligi va soliq majburiyatlarining ijrosi masalalari ham klassik, ham zamonaviy iqtisodiy maktablar vakillari tomonidan keng tadqiq etilgan. Korporativ moliya va soliqqa tortish nazariyasining poydevori hisoblangan tadqiqotlarda soliq yukining korxonalar investitsion faolligiga va moliyaviy barqarorligiga ta'siri doimiy bahslar markazida bo'lib kelgan.

G'arb iqtisodiyot fani vakillaridan Keynes (1936) o'zining davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish nazariyasida soliq mexanizmlaridan nafaqat fikal daromad manbai, balki xo'jalik subyektlarining rag'batlantiruvchi yoki cheklovchi vositasi sifatida foydalanish zarurligini ta'kidlagan. Uning fikricha, haddan tashqari qattiq soliq bosimi va undiruv choralari tadbirkorlik faolligini so'ndiradi va pirovardida soliq bazasining qisqarishiga, ya'ni qarzidorlikning o'sishiga olib keladi.

Monetarizm nazariyasi asoschisi M. Fridmen esa soliq tizimining neytralligi va soddaligini yoqlab chiqqan. U soliq ma'muriyatchiligining murakkabligi va jarimalarning og'irligi korxonalarni yashirin iqtisodiyotga chorlashini va natijada rasmiy sektorda soliq qarzlarning sun'iy ravishda ko'payishini isbotlashga uringan. Keyinchalik, Laffer (2004) o'zining mashhur konseptual modelida soliq stavkalari ma'lum bir kritik nuqtadan oshganda, davlat budjetiga tushumlar kamayib, soliq qarzlarni to'lamaslik va ulardan bo'yin tovlash tendensiyasi geometrik progressiyada o'sishini ko'rsatib berdi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan Panskov (2020), Chernik (2019) va Mayburovlar o'z ilmiy ishlarida o'tish davri iqtisodiyoti sharoitida soliq qarzlari muammosini tadqiq etganlar. Panskovning (2020) ta'kidlashicha, soliq qarzi ko'pincha davlat soliq siyosatining nomukammalligi va korxonalarining real moliyaviy ahvoli hisobga olinmasdan soliq rejalashtirishining amalga oshirilishi natijasidir. Chernik (2019) esa soliq qarzini qisqartirishda faqatgina jazo choralari tayanmasdan, soliq monitoringi va horizontal monitoring kabi preventiv (oldini oluvchi) usullarni kengaytirish lozimligini asoslagan.

O'zbekistonda soliq tizimi, korxonalar moliyaviy barqarorligi va soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish masalalari mahalliy olimlar tomonidan ham faol o'rganilmoqda. Xususan, iqtisodchi olimlar Vahobov, Malikov (2019), Tobasharov, Toshmatov (2018) va Jo'rayevlarning (2021) asarlarida soliq islohotlari, korxonalarda soliq yukini kamaytirish va soliq majburiyatlarini bajarish darajasini oshirish muammolari ko'rib chiqilgan.

Vahobov (2019) o'z tadqiqotlarida korxonalarining moliyaviy sog'lomlashtirish jarayonlarida soliq imtiyozlari va sanksiyalarining differensiallashgan (tabaqalangan) tartibini qo'llash zarurligini ilgari suradi. Toshmatov (2018) korxonalarining soliq menejmenti tizimini rivojlantirish orqali soliq risklarini boshqarish va shu tariqa kutilmagan soliq qarzlarning vujudga kelishidan himoyalash konsepsiyasini ishlab chiqqan. Shuningdek, Jo'rayev (2021) o'z ishlarida soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish sharoitida qarzdorlikni undirishning sudgacha bo'lgan mexanizmlarini takomillashtirish borasida muhim xulosalar bergan.

Biroq, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi joriy etilishi va iqtisodiyotning raqamli platformalarga o'tishi sharoitida, soliq qarzini qisqartirish va korxonalarining moliyaviy barqarorligini o'zaro muvozanatda saqlash mexanizmlari tizimli ravishda monografik yoki monomavzu darajasida yetarlicha tadqiq etilmagan. Aksariyat izlanishlar faqat fiskal samaradorlikni oshirishga qaratilgan bo'lib, korxonaning ichki moliyaviy ekotizimini asrab qolish masalalari ikkinchi darajada qolib ketmoqda.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Korxonaning moliyaviy barqarorligi uning uzoq muddatli istiqbolda o'z majburiyatlarini to'liq va o'z vaqtida bajara olish, o'z mablag'lari hisobidan ishlab chiqarishni kengaytirish va kutilmagan iqtisodiy shoklarga dosh bera olish qobiliyatini anglatadi. Soliq majburiyatlari esa korxonaning har qanday turdagi daromadi yoki mulkiy aktivlaridan qat'iy nazar, qonun bilan belgilangan tartibda davlat foydasiga begonalashtiriladigan majburiy to'lovlardir. Binobarin, soliq va korxonalar moliya tizimi o'rtasida doimiy manfaatlar to'qnashuvi mavjud.

O'zbekiston sharoitida korxonalarda soliq qarzlarning shakllanishi bir nechta fundamental sabablar guruhiga bo'linadi:

#### **1. Iqtisodiy va tizimli omillar.**

Bunga korxonalar faoliyat ko'rsatayotgan tarmoqdagi debitorlik qarzlarning haddan tashqari yuqoriligi kiradi. Masalan, korxonalar o'z mahsulotini realizatsiya qiladi, hisob-kitoblar prinsiplariga (aks ettirish usuliga) ko'ra soliq majburiyati vujudga keladi, biroq xaridorlardan pul mablag'lari real vaqt rejimida korxonaning bank hisob raqamiga kelib tushmaydi. Natijada, korxonada qog'ozda foyda bor, lekin amalda soliqni to'lash uchun naqd pul (likvidlik) yetishmaydi. Bu esa likvidlik yetishmovchiligi natijasida sun'iy soliq qarzini keltirib chiqaradi.

## 2. Soliq ma'muriyatchiligining qat'iy usullari.

Amaldagi tartibga ko'ra, soliq majburiyati belgilangan muddatda bajarilmagan taqdirda, soliq organlari avtomatik ravishda korxonaning hisob raqamlariga ijro hujjatlarini yoki inkasso topshiriqnomalarini yo'naltiradi. Inkasso tizimi korxonaning barcha kiruvchi pul oqimlarini qulflab qo'yadi va faqat soliq qarzini yopishga xizmat qildiradi. Bu holat korxonani ish haqi to'lash, xomashyo sotib olish va boshqa operatsion xarajatlarni qoplash imkoniyatidan mahrum qiladi va natijada moliyaviy tanglikni yanada chuqurlashtiradi.

## 3. Soliq risklarini noto'g'ri baholash va huquqiy savodxonlik darajasi.

Ko'pgina kichik va o'rta korxonalarda soliq rejalashtirishining yo'qligi, soliq qonunchiligidagi tez-tez o'zgarib turadigan normalarni o'z vaqtida o'zlashtirmaslik, shuningdek, to'g'ri soliq hisobini yurita olmaslik natijasida soliq tekshiruvlari (kameral yoki sayyor) davomida katta miqdorda qo'shimcha soliqlar va peniyalar hisoblanadi. Kutilmagan ushbu moliyaviy yuk korxonani esankiratib qo'yadi va qisqa muddatda qarzga botiradi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida soliq qarzlarini to'lash muddatlarini o'zgartirish (soliqni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini berish) ko'zda tutilgan. Biroq, ushbu mexanizmdan amaliyotda foydalanish darajasi nihoyatda past. Buning asosiy sababi – soliq to'lovchiga qo'yiladigan talablarning o'ta yuqoriligi va byurokratik to'siqlarning mavjudligidir. Soliqni kechiktirish huquqini qo'lga kiritish uchun korxonaga garov mulki, bank kafolati yoki uchinchi shaxs kafilligini taqdim etishi shart. Aksariyat moliyaviy qiyin ahvoldagi korxonalarda esa bunday likvidli garov mulklari mavjud bo'lmaydi, banklar esa moliyaviy barqarorligi shubhali bo'lgan korxonaga kafolat berishdan bosh tortadi.

Yana bir muhim jihat bu – soliq qarzlariga hisoblanadigan peniyalar tizimidir. Peniya korxonani soliqni tezroq to'lashga majburlashi kerak bo'lgan rag'batlantiruvchi-jazo vositasi bo'lishi lozim. Biroq, agar korxonaga obyektiv iqtisodiy sabablarga ko'ra inqirozga uchragan bo'lsa, kunlik hisoblanadigan peniya uning qarz yukini ko'chki kabi oshirib boradi. Ma'lum bir nuqtadan keyin, soliq qarzi summasi korxonaning barcha aktivlari qiymatidan oshib ketadi va korxonani saqlab qolishning iqtisodiy ma'nosi qolmaydi.

Soliq qarzini qisqartirish kontseptsiyasi tubdan o'zgarishi kerak. Bu jarayon faqatgina davlat xizmatchilarining majburiy undirish choralaridan iborat bo'lmay, balki korxonani moliyaviy sog'lomlashtirish strategiyasining ajralmas qismiga aylanishi lozim. Bunga erishish uchun soliq idoralari va korxonalar o'rtasida "shiriklik va hamkorlik" modelini joriy etish talab etiladi.

Tadqiqot natijasida aniqlangan muammolar doirasida iqtisodchi olimlar va amaliyotchilar o'rtasida jiddiy konseptual muhokamalarni talab qiladigan bir nechta ziddiyatli masalalar mavjud.

Birinchidan, soliq ma'muriyatchiligining qat'iyligi va yumshoqligi o'rtasidagi oltin o'rtaliqni topish muammosi. Agar soliq organlari soliq qarzini undirishda o'ta yumshoq pozitsiyani egallasa va kechiktirishlarni osonlikcha taqdim etsa, bu bozorda "ma'naviy xavf" (moral hazard) fenomenini keltirib chiqarishi mumkin. Insofsiz soliq to'lovchilar davlat mablag'laridan foizsiz kredit sifatida foydalanishni boshlaydilar, bu esa insofli soliq to'lovchilar o'rtasida teng raqobat muhitini buzadi. Aksincha, o'ta qattiq ma'muriyatchilik esa korxonalarni ommaviy ravishda bankrotlikka va faoliyatini to'xtatishga majbur qiladi, bu esa uzoq muddatda soliq bazasining yo'qolishi demakdir.

Ikkinchidan, inkasso topshiriqnomalarini qo'llash amaliyotining huquqiy-iqtisodiy ziddiyatidir. Amaldagi tartib bo'yicha, soliq qarzi vujudga kelishi bilan hisobvaraqa muzlatiladi. Biroq, xalqaro tajriba (masalan, Germaniya, Fransiya yoki Janubiy Koreya kabi mamlakatlar amaliyoti) shuni ko'rsatadiki, korxonaning operatsion faoliyatini to'liq to'xtatish emas, balki uning tushumlaridan ma'lum bir belgilangan foizni (masalan, 20-30 foizdan ko'p bo'lmagan qismini) qarzni uzishga yo'naltirgan holda, qolgan qismini ishlab chiqarishni davom ettirish va ish haqini to'lash uchun qoldirish samaraliroq hisoblanadi. Bizning sharoitda esa inkasso hamma mablag'ni yutib yuboradi, bu esa korxonaning "o'limini" tezlashtiradi.

Uchinchidan, soliq risklarini baholash tizimining (Pre-kameral nazorat) ochiqlik darajasidir. Hozirgi kunda avtomatlashtirilgan dasturlar orqali korxonalariga soliq hisobotlaridagi tafovvtlar yuzasidan xabarnomalar yuboriladi. Ko'pincha, bu tafovvtlar texnik xatolar yoki dasturning algoritmlaridagi kamchiliklar tufayli yuzaga keladi. Biroq, ushbu tafovvtlar bo'yicha zudlik bilan tushuntirish berilmasa yoki soliq to'lanmasa, korxonaning QQS guvohnomasi to'xtatiladi yoki hisob raqami band qilinadi. Muhokama shuni ko'rsatadiki, soliq ma'muriyatchiligida avtomatlashtirish insoniylik munosabatlarini va individual yondashuvni butunlay siqib chiqarmasligi kerak.

Shuningdek, to'lovga qobiliyatsizlik (bankrotlik) to'g'risidagi qonunchilik bilan Soliq kodeksi normalarining o'zaro muvofiqligi masalasi ham jiddiy muammo hisoblanadi. Korxonalar bankrotlik arafasida turganda, soliq qarzlari imtiyozli navbatda undiriladi. Biroq, soliq qarzlarning restrukturizatsiya qilinishi korxonaning to'liq inqirozga uchrashining oldini olishi mumkin bo'lgan eng fundamental vositadir, lekin ushbu tizimning huquqiy asosi amaliyotda murakkabligicha qolmoqda.

O'tkazilgan konseptual tahlillar va xalqaro tajribalarni qiyoslash asosida, O'zbekiston sharoitida korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlagan holda soliq qarzlarni qisqartirish va tizimni takomillashtirishning quyidagi optimal natijalari va takliflari shakllantirildi:

1. Soliq qarzlarni tabaqalashtirilgan (differensial) tasniflash tizimini joriy etish

Soliq qarzdorligiga ega bo'lgan barcha korxonalariga bir xil majburiy undirish choralarini qo'llash amaliyotidan voz kechish lozim. Korxonalar uch guruhga ajratilishi kerak:

• **"Vaqtinchalik qiyinchilikka uchragan insofli to'lovchilar"** – debitorlik qarzi yuqoriligi yoki mavsumiylik tufayli puli yo'q, lekin soliq tarixi toza korxonalar. Ularga zudlik bilan inkasso qo'yilmaydi, balki 3 oydan 6 oygacha garovsiz bo'lib-bo'lib to'lash huquqi beriladi.

• **"Soliq risklari mavjud subyektlar"** – tizimli ravishda xatolarga yo'l qo'yadigan korxonalar. Ularga soliq auditi o'rniga soliq ko'maki (konsalting) taqdim etiladi.

• **"Insofsiz va qasddan bo'yin tovlovchi subyektlar"** – yashirin iqtisodiyot bilan shug'ullanuvchi korxonalar. Ularga nisbatan barcha qonuniy majburiy choralar to'liq hajmlarda qo'llaniladi.

2. Inkasso topshiriqnomalarining moslashuvchan mexanizmini yaratish

Soliq qarzi uchun bank hisobvarag'ini butunlay blokirovka qilish tartibini o'zgartirish zarur. Inkasso topshiriqnomasi faqat kelib tushayotgan har bir pul mablag'ining ma'lum bir qismiga (masalan, jami summaning 30 foiziga) nisbatan amal qilishi belgilanishi lozim. Qolgan 70 foiz mablag' korxonaning faoliyatini davom ettirishi, xodimlarga ish haqi berishi va ishlab chiqarishni to'xtatmasligi uchun uning ixtiyorida qolishi shart. Bu vosita korxonaning moliyaviy "yashab qolishini" va natijada qarzni to'liq uzishini ta'minlaydi.

3. Soliq qarzini restrukturizatsiya qilish shartlarini soddalashtirish.

Yangi tahrirdagi Soliq kodeksida soliq qarzlari bo'yicha bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini olish uchun talab qilinadigan moliyaviy kafolatlar (bank kafolati, garov) tizimi yumshatilib, korxonaning so'nggi uch yillik faoliyatidagi sof aktivlari qiymati asosiy kafolat sifatida tan olinishi tartibi joriy qilinishi lozim. Agar korxonaning sof aktivlari soliq qarzidan yuqori bo'lsa, qo'shimcha mol-mulk garovi talab qilinmasligi kerak.

4. "Peniya ta'tili" (Penalty Holiday) institutini yaratish.

Korxonalar o'zining soliq qarzining asosiy qismini to'lash bo'yicha grafikni qabul qilsa va uni so'zsiz bajara boshlasa, ushbu grafik amal qilish davrida unga peniya hisoblash to'liq to'xtatilishi lozim. Bu korxonaga moliyaviy rejalashtirishni aniq amalga oshirish va qarz botqog'idan tezroq chiqish imkonini beradi.

5. Soliq krediti mexanizmini amaliyotga kiritish.

Innovatsion va modernizatsiyalash loyihalarini amalga oshirayotgan, biroq joriy davrda soliq qarzdorligi yuzaga kelgan korxonalar uchun "investitsiyaviy soliq krediti" berilishi kerak. Bunda korxonalar soliq qarzini ma'lum muddat to'lamaydi, ushbu mablag'larni ishlab chiqarishni

kengaytirishga yo'naltiradi va loyiha ishga tushgandan so'ng hosil bo'lgan qo'shimcha foyda hisobidan qarzni qaytaradi.

### Xulosa va takliflar.

O'zbekiston sharoitida iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichi korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash va soliq ma'muriyatchiligini rivojlantirish o'rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etmoqda. Soliq qarzi shunchaki budjetga tushmay qolgan mablag' emas, balki korxonaning moliya-xo'jalik tizimidagi jiddiy nosozliklar va tizimli iqtisodiy muammolarning indikatoridir.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, an'anaviy qat'iy, faqat fiskal maqsadlarga yo'naltirilgan majburiy undirish choralari (hisob raqamlarni to'liq muzlatish, mol-mulkni zudlik bilan xatlash va hisoblanayotgan cheksiz peniyalar) o'zining samaradorlik muddatini o'tab bo'ldi. Bunday usullar soliq qarzini qisqartirish o'rniga, korxonalarni inqirozga yetaklab, davlatni doimiy soliq to'lovchi manbaidan mahrum qilmoqda.

Korxonalar moliyaviy barqarorligini asrash orqali soliq qarzlarini kamaytirishning eng samarali yo'li – bu ma'muriy va iqtisodiy choralar balansini topishdir. Soliq to'lovchilarni risklar darajasiga ko'ra tabaqalash, moslashuvchan inkasso tizimini joriy etish, garov talablarini yumshatish va "peniya ta'tili" kabi rag'batlantiruvchi mexanizmlarni joriy qilish orqali soliq tizimining korxonalarga nisbatan jazolovchi emas, balki sog'lomlashtiruvchi xarakterini shakllantirish mumkin. Ushbu islohotlar uzoq muddatli istiqbolda mamlakatda tadbirkorlik muhitini yaxshilaydi, korxonalarining moliyaviy mustaqilligini oshiradi va eng asosiysi – davlat budjetining soliq bazasini barqaror va ishonchli kengaytirishga xizmat qiladi.

### Adabiyotlar / Литература / Reference:

Chernik D.G. (2019) *Nalogovaya sistema: Uchebnoye posobiye.* – Moskva: Yuniti-Dana, – 415 s.

Friedman M. *Tax Policy and Economic Stability // American Economic Review.* – 1952. – Vol. 42, No. 3. – Pp. 234-248.

Jo'rayev A.A. (2021) *Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishning strategik yo'nalishlari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali.* – № 4. – B. 12-25.

Keynes J.M. (1936) *The General Theory of Employment, Interest, and Money.* – London: Palgrave Macmillan, – 400 p.

Kodeks (2019) *O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.* – Toshkent: Adolat, (va keyingi o'zgartirish hamda qo'shimchalar).

Laffer A. (2004) *The Laffer Curve: Past, Present, and Future // Heritage Foundation Backgrounder.* – No. 1765. – Pp. 1-12.

Panskov V.G. (2020) *Naloga i nalogovoye administrirovaniye: Uchebnyk.* – Moskva: Finansi i statistika, – 390 s.

Qonun (2022) *O'zbekiston Respublikasining "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida"gi Qonuni.* – Toshkent.

Toshmatov Sh.A. (2018) *Korxonalarni soliqqa tortish va soliq risklarini boshqarish: Monografiya.* – Toshkent: Iqtisod-Moliya, – 280 b.

Vahobov A.V., Malikov T.S. (2019) *Korporativ moliya: Darslik.* – Toshkent: Cho'lpon nomidagi NMIU, – 450 b.